

## INGLIZ TILIDA YOZMA NUTQ KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

**Jumamuratova Muxabbat Azatbaevna**

Qoraqalpoq davlat universiteti doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15674462>

**Rezyume:** Ushbu maqolada yozma nutq kompetensiyasini shakllantirishning va rivojlantirishning metodik usullari, har xil yondoshuvlar va ularning ta'sir darajasi haqida ma'lumotlar berilgan. Pedagogik muvaffaqiyatga erishish uchun, nazariy yondashuvlarni amaliy faoliyatlar bilan birlashtirish zarur, masalan, yozma namunalarini tahlil qilish, hamkorlikda yozish va aniq yozma topshiriqlarni bajarish orqali talabalar yozma nutqni chuqurroq tushunadilar.

**Kalit so'zlar:** yondoshuv, yozma kompetensiya, metodik usullar, yozma nutq, mashqlar, didaktik texnik vositalar.

Ingliz tili o'rganuvchilarning yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirish pedagogik jihatdan juda muhim. Chunki bu talabalarning birinchidan, lingvistik bilimlari, keyin esa kommunikativ ko'nikmalari va madaniy tushunchalarini birlashtirishni talab qiladi.

Yozma nutq kompetensiyasini shakllantirish CEFRning asosiy talablari asosida belgilanadi va har bir darajada muayyan writing descriptors (yozma nutq tavsiflari) mavjud. CEFR tizimiga ko'ra, til o'rganishning 6 bosqichini quyidagilardan iborat:

1,A1 (Breakthrough or Beginner):

Boshlang'ich daraja, bu yerda o'rganuvchi juda oddiy, kundalik muloqotlar uchun yetarli bo'lgan so'zlarni va jummalarni tushunishi mumkin. Masalan, ismni so'rash va javob berish, o'zingizni tanishtirish.

2,A2 (Waystage or Elementary):

Talaba oddiy mavzularda qisqacha gapirish va yozish imkoniyatiga ega. Oddiy so'zlashuv va yozishni anglashda qiyinchilikka duch kelmaydi.

3,B1 (Threshold or Intermediate):

O'rganuvchi o'z fikrlarini o'rtacha murakkablikdagi mavzularda ifodalash imkoniyatiga ega. Biroq, u hali noaniq yoki murakkab so'zlarni tushunishda qiynalishi mumkin.

4,B2 (Vantage or Upper Intermediate):

Bu bosqichda talaba o'z fikrlarini aniq va samarali ifodalashda, grammatika va so'z boyligini kengaytirishda qiyinchilikka duch kelmaydi. Ular professional va ijtimoiy suhbatlarda qatnasha olishadi.

5,C1 (Effective Operational Proficiency or Advanced):

Yuqori darajadagi o'rganuvchi murakkab matnlarni tushunishi va moslashuvchan ravishda o'z fikrlarini aniq va samarali ifodalashni davom ettiradi. Tilni professional va ijtimoiy sohalarda mukammal ishlata oladi.

6,C2 (Mastery or Proficiency):

Bu daraja, tilni erkin va mukammal darajada o'rganish. Talaba murakkab ma'lumotlarni tushunadi va ifodalashda hatto noaniq tushunchalarni ham mukammal tarzda etkazadi.

CEFR tizimi, talabalarning tilni o'rganish bosqichlarini aniqlashga yordam beradi, shu bilan birga yozma va og'zaki kompetensiyalarni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Pedagoglar bu tizimni o'quv rejalari va darslarni tuzishda asosiy yo'riqnomalardan biri sifatida ishlatadilar. Shuningdek, lingvistik, sotsiolingvistik, diskursiv va pragmatik kompetensiyalar kabi boshqa ko'nikmalarni rivojlantirish ham o'quvchilarni tilni to'g'ri va samarali ishlata olish darajasiga yetkazish uchun zarurdir.

CEFR talablari asosida yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik-didaktik yondashuvlar nafaqat lingvistik bilimlarni, balki madaniy va kommunikativ kompetensiyalarni ham shakllantiradi. Shunday qilib, bu yondashuv O'zbekistonda xorijiy tillarni o'qitish tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishda, CEFR standartlariga asoslangan tizimli yondashuv talabalarni bir necha bosqichdan o'tkazish orqali ularning yozma ko'nikmalarini takomillashtiradi, har bir darajaga mos ravishda vazifalarni belgilab, ularni kompleks tarzda rivojlantiradi. Bu pedagogik yondashuv, o'quvchilarning o'z fikrlarini aniq va mantiqiy tarzda ifodalashlarini ta'minlaydi.

Pedagogik muvaffaqiyatga erishish uchun, nazariy yondashuvlarni amaliy faoliyatlar bilan birlashtirish zarur, masalan, yozma namunalarini tahlil qilish, hamkorlikda yozish va aniq yozma topshiriqlarni bajarish orqali talabalar yozma nutqni chuqurroq tushunadilar.

Yozuv va yozma nutqning lingvodidaktik tahlili ingliz tilidagi harflarning grafik belgilarini, orfografik qoidalarni bilish, harflarni to'g'ri chiroyli yozish ko'nikmalarini shakllantirish, yozma fikrni ifodalash, mantiqiy bog'liqlik, yozma axborot yo'naltirilgan shaxs, axborot mavzusi, yozayotgan shaxsning psixologik holati, yozma nutqda ishlatilayotgan gap qurilishlarini mavzuga va nutq maqsadiga mos holda qo'llay bilish kabi omillarga e'tibor qaratiladi.

Ingliz tilini o'rganishda esa til o'rganuvchida tilning akustik obrazi ham, grafik obrazi ham shakllanmagan bo'ladi. Ularning har ikkisini shakllantirishda



yozuv va yozma nutq ketma-ketlikda olib borilishi talabalarni ingliz tilidagi yozuvga o'rgatishda tovush-harf munosabati, kalligrafiya va orfografik qoidalar bilan bog'liq qiyinchiliklar kuzatilishiga e'tibor qaratadi. Ingliz tili harflari va ular anglatgan tovush o'rtasidagi assotsiatsiyaning buzilishi esa so'z akustik obrazining buzilishi va xatolar kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Harflarning o'qitilishidagi polisemik xususiyat tovush-harf munosabati bilan bog'liq xatolar keltirib chiqarish imkonini beradi.

Talabalarining ingliz tilidagi yozma nutqining lingvodidaktik tahlili bildirilgan fikrni yozma shaklda davom ettirilmalik; matnni bayon qilishdagi mantiqiy bog'liqlikning yo'qligi; rasmni izchil tasvirlay olmaslik; matnni ma'no jihatdan bog'liq qismlarga ajrata olmaslik kabi yozma nutqqa xos bo'lgan xatolarni aniqlashga yordam berdi. Ingliz tilini o'zlashtirish va kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodik ta'minoti lingvodidaktik tahlil asosida mutaxassislik o'quv materiallarini tizimlashtirish bo'yicha yozma nutq kompetensiyasi takomillashtirilgan.

Ingliz tilini o'zlashtirish va kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodik ta'minoti lingvodidaktik tahlil asosida mutaxassislik o'quv materiallarini tizimlashtirish bo'yicha yozma nutq kompetensiyasi takomillashtirilgan.

Talabalarining yozma nutq ko'nikmalarini tizimli ravishda shakllantirish va mukammallashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Boshlang'ich bosqich – yozuv malakasini shakllantirish. Bu bosqichda orfografiya, punktuatsiya va grammatik tuzilishlar bo'yicha asosiy bilimlar mustahkamlanadi. Talabalar maxsus ish daftarlari, onlayn testlar va interaktiv platformalar orqali yozuv mashqlarini bajaradilar.

Ushbu bosqichning asosiy vazifasi talabalarining yozuvga oid texnik ko'nikmalarini shakllantirish va mustahkamlashdan iborat. Bu bosqichda talaba ingliz tilida yozuv qoidalari, orfografiya va punktuatsiyani o'rganadi. Shuningdek, turli sintaksik tuzilmalarni o'zlashtirib, grammatik jihatdan to'g'ri yozuv malakasini shakllantiradi.

- Orfografiya va punktuatsiya qoidalari – talaba ingliz tilidagi yozuv me'yorlarini o'rganishi zarur. Masalan, their/there/they're so'zlarining to'g'ri qo'llanishi.

- Grammatik tuzilishlar – sodda va murakkab gaplarni to'g'ri yozish malakasini shakllantirish.

- Bosqichma-bosqich mashqlar – avval sodda so'z birikmalari yoziladi, keyinchalik murakkab gap tuzishga o'tiladi.



Masalan: “She reads a newspaper” (sodda gap)

1.“She read a newspaper yesterday, and she will read another one tomorrow.” (murakkab gap)

Tashkil etish usullari va texnologik vositalar:

- Onlayn testlar va interaktiv mashqlar: Quizlet, Kahoot, Grammarly, Duolingo kabi platformalardan foydalanish.

- Tayyor matnlarni nusxalash (Copywriting method): talabalar to‘g‘ri yozilgan matnlarni qayta yozish orqali yozuv malakasini oshirishlari mumkin.

- Yozma mashqlar: talabalardan beriladigan so‘zlardan so‘z birikmalari yoki sodda gaplar tuzish talab qilinadi. Masalan, “write” fe‘li bilan turli vaqt shakllarini qo‘llab gaplar tuzish.

Misollar: Orfografiya mashqlar:

- Talabalarga bir xil talaffuz qilinadigan, ammo yozilishi farqlanadigan so‘zlar beriladi (homophones): there – their – they’re; your – you’re. (Ulardan ushbu so‘zlarning farqini tushuntirgan holda har birini to‘g‘ri qo‘llagan holda gap yozish talab etiladi).

1.Sintaksik mashqlar:

- Berilgan gaplarning bir qismini o‘zgartirib, yangi gap tuzish: She writes a letter every day. → She wrote a letter yesterday.

2.Rivojlantirish bosqichi – fikrni yozma ravishda ifodalash ko‘nikmalarini takomillashtirish. Bu bosqichda talabalar esse, maqola va referat yozish orqali yozma nutqni shakllantirishadi. Buning uchun elektron tahrirlash vositalari, sinfda va mustaqil o‘qish uchun mo‘ljallangan resurslardan foydalaniladi.

Bu bosqichda talabalarning yozma fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, o‘z fikrini ravon va aniq bayon qilish, turli yozuv janrlarida ishlash malakasini shakllantirish ko‘zda tutiladi.

Masalan: Berilgan mavzuda esse yozish:


“The role of social media in education.”

Dastlab, talabalar asosiy fikrlarni tuzib chiqadi.

Keyin ularga aniq misollar va faktlar asosida tahliliy yozish topshirig‘i beriladi.

Shuningdek, talabalarning fikrlarini aniq hamda ravon bayon qilish ko‘nikmasini rivojlantirish, murakkab gaplardan foydalanishni o‘rgatish, turli yozma janrlarda ishlashdan iborat:

- Fikrlarni aniq ifodalash – talabalar o‘z yozgan matnlarida aniqlik va mantiqiy izchillikni ta‘minlashni o‘rganishlari kerak.



- Matnni qayta yozish va tahrirlash – talabalar yozgan matnlarini qayta ko‘rib chiqish va yaxshilash malakasini o‘zlashtirishi lozim.

- Yozuv janrlari – talabalar esse, bayon, tahliliy maqolalar yozishni o‘rganadi.

Tashkil etish usullari va texnik vositalar:

- Onlayn tahrirlash vositalari: Grammarly, Hemingway Editor kabi dasturlar yozuvdagi xatolarni aniqlashga yordam beradi.

- Esse yozish platformalari: Google Docs, Overleaf ( akademik yozish uchun).

- Sinfdagi muhokamalar: Talabalarga biror mavzu bo‘yicha yozma fikr bildirish topshirig‘i beriladi va ular yozgan fikrlarini guruhda muhokama qilishadi.

Misollar: Taqqoslash va analiz qilish mashqi:

- Talabalarga ikki turli fikr bildirilgan qisqa matn beriladi. Ulardan har ikki pozitsiyani taqqoslab, o‘z fikrini qo‘shimcha argumentlar bilan yozma ravishda bildirish so‘raladi.

1.Tahliliy esse yozish:


- “Should social media be regulated?” mavzusida talabalardan ikki taraflama tahliliy esse yozish talab etiladi. Ular dalillar keltirish, xulosa chiqarish va o‘z nuqtai nazarini asoslashlari kerak.

3.Tahlil va ijodiy yozish bosqichi – talabalarning tanqidiy tahlil va ijodiy yozish malakasini rivojlantirish. Bu bosqichda talabalardan turli manbalar asosida tahliliy maqolalar yozish, axborotni qayta ishlash va o‘z fikrlarini mantiqiy ifodalash talab etiladi. Onlay sotish dasturlari, intellektual yozuv platformalari va til korpuslari bu jarayonda asosiy yordamchi vositalar hisoblanadi.

Bu model talabalarning yozma nutq kompetensiyasini bosqichma-bosqich shakllantirishga hamda yozuv malakasini nazariy va amaliy jihatdan mustahkamlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, til o‘rganish jarayonini yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Bu bosqich talabalarning tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan. Talabalar murakkab mavzular bo‘yicha mustaqil tahlil qilish, o‘z qarashlarini asoslash va ijodiy tarzda yozish malakasiga ega bo‘lishi kerak.

Tanqidiy tahlil qilish – ma‘lum bir mavzuda faktlar va dalillarni tahlil qilish, xulosa chiqarish.



Ijodiy yondashuv – talabalarni mustaqil fikrlashga yo‘naltirish va original yozish usullarini qo‘llash.

Jurnalistik maqolalar va badiiy yozish – talabalardan maqolalar, blog yozish, voqea yozish topshiriqlari beriladi.

Masalan: Keysli tadqiqot (Case Study):

- Berilgan ijtimoiy muammo bo‘yicha tahliliy maqola yozish (“The impact of globalization on languages”).

- Talabalar bu mavzuda ma‘lumot to‘plab, o‘z nuqtai nazarini yozishi kerak.

Talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini oshirish, ularni mustaqil yozuvchiga aylantirish, ijodiy yozish malakasini shakllantirish.

Tashkil etish usullari va texnik vositalar:

- Kognitiv tahlil vositalari: MindMeister, XMind – fikr xaritalash platformalari.

- Jurnalistik va blog yozish platformalari: Medium, WordPress.

- Avtomatlashtirilgan tahlil vositalari: Turnitin, iThenticate – plagiatni tekshirish va tahlil qilish uchun.

Misollar: Jamoaviy tahlil va esse yozish:

Talabalarga akademik maqoladan iqtibos beriladi. Ular bu iqtibos asosida fikr bildirib, o‘z esselarini yozishlari kerak.


2.Keysli tadqiqot (Case Study):

Biror ijtimoiy muammo haqida matn beriladi (masalan, ekologik muammolar, gender tengligi). Talabalardan bu muammo haqida tahlil yozish talab qilinadi.

Yozma nutq kompetensiyasini shakllantirishda didaktik texnik vositalardan samarali foydalanish talabalarning yozuv malakasini bosqichma-bosqich rivojlantirishga imkon beradi. Boshlang‘ich bosqichda orfografiya va punktuatsiyaga e‘tibor qaratish kerak bo‘lsa, rivojlantirish bosqichida murakkab yozma nutq elementlari o‘rgatiladi. Oxirgi bosqichda esa ijodiy va tanqidiy yozish malakasi mustahkamlanadi.

Yozma nutq kompetensiyasini shakllantirishdagi didaktik texnik vositalarni qo‘llash tizimli yondashuvni talab qiladi. Ushbu bosqichli model talabalarning yozuv malakasini bir maromda rivojlantirishga imkon yaratadi.

1.Boshlang‘ich bosqich yozuv va orfografiyani shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, bu bosqichda texnik ko‘nikmalar rivojlanadi. Agar bu bosqich to‘liq o‘zlashtirilmasa, keyingi bosqichdagi mashqlar samarali bo‘lmaydi.



2. Rivojlantirish bosqichi fikrni ravon va aniq yozishga yo'naltirilgan. Talabalar turli janrlarda yozishni o'rganadi, bu esa ularning yozma nutqini mustahkamlaydi.

3. Tahlil va ijodiy yozish bosqichi talabalarning tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu bosqichda talabalar mustaqil fikrlash, tahlil qilish va ijodiy yondashishni o'rganadilar.

Differensial yondashuv: har bir bosqichdagi maqsadlar va metodlar talabalarning bilim darajasiga mos kelishi kerak.

Bosqichma-bosqich rivojlanish: talabalar yozuv malakasini mukammal o'zlashtirishi uchun har bir bosqichdagi metodlar to'g'ri qo'llanishi kerak.

Ijodiy va tanqidiy yondashuvni shakllantirish: talabalar nafaqat yozish, balki tahlil qilish va o'z fikrini aniq va dalillar bilan yozishni o'rganishi lozim.

Shunday qilib, filologiya fakulteti talabalarida ingliz tilidagi yozma nutq kompetensiyasini shakllantirish tizimli va ilmiy yondashuv talab etadi. Agar bu metodika to'g'ri qo'llansa, talabalar yozma nutqda erkin fikrlash va yozish qobiliyatini egallashadi.

Umuman olganda, ingliz tilida yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirish, kompetensiya asosidagi yondashuvni va xalqaro standartlarga asoslangan ta'lim tizimini birlashtirib, talabalarni lingvistik va kommunikativ mahoratlarni o'rgatishga qaratilgan kompleks pedagogik yondashuvni taqozo etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Кудряшова, О.В. Компоненты коммуникативной компетенции при обучении письменной речи. // «Вестник ЮУрГУ», 2007, № 15.
2. Hyland, K. (2003). Second Language Writing. Cambridge University Press.
3. Palmer, B. (1994). Writing and Thinking: The Role of Writing in Cognitive Development. Educational Psychology Review, 6(3), 245-270.
4. Krashen, S. D. (1984). Writing: Research, Theory, and Applications. Pergamon Press.
5. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
6. Swain, M. (1995). Three Functions of Output in Second Language Learning. In Cook, G., & Seidlhofer, B. (Eds.), Principle & Practice in Applied Linguistics. Oxford University Press.
7. Buck, G. (2001). Assessing Listening. Cambridge University Press.
8. Саттаров Т. Бўлажак чет тил ўқитувчисининг услубий омилкорлигини шакллантириш технологияси. – Т.: ТДЮИ нашриёти, 2003. –47-б.



9. Акрамова Л.Ю. Ўзбекистондаги тиббиёт институтлари талабаларининг рус тилидаги ёзма нутқини ўстиришни илмий матнлар асосида олиб боришни тадқиқ қилиш. / Автореферат. Обучение письменной речи на базе научного текста по специальности медицинских вузов Узбекистана. - Т., 2001.

